



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan
zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini
takomillashtirish to‘g‘risida**

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi hamda faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish ishlarini takomillashtirish maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasini ommalashtirish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasini ommalashtirish uchun tayyorlangan metodik ishiga qo‘yilgan talablar va baholash mezonini 2-ilovaga muvofiq;

O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasini ommalashtirish bo‘yicha fanlar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq;

O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi ommalashtirilganligi to‘g‘risidagi sertifikat namunasi 4-ilovaga muvofiq;

O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi ommalashtirilganligi to‘g‘risida sertifikatlar berish bosqichlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti va Respublika ta’lim markazi o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi hamda faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish ishlarini tashkil etadi hamda muvofiqlashtiradi.

3. A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov)ga:

uch kun muddatda ommalashtirish.uz platformasini Respublika ta’lim markazidan qabul qilib olish;

ommalashtirish.uz platformasi orqali metodik ishlarni qabul qilish jarayonlarini tashkil etish;

ommalashtirish.uz platformasidan foydalanish bo‘yicha pedagoglarga targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-fevraldagi “O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 32-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Devonxona (X.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, Pedagogik mahorat markazlari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2025-yil “ 17 ”-mart,
89-son

O'qituvchilarning ilg'or tajribasini ommalashtirish TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib maktabgacha va maktab ta'limi tizimida o'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish hamda maktab ta'limi tizimidagi tajribali pedagog kadrlar, jumladan, fan o'qituvchilarining ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish tartibini (keyingi o'rinlarda – ommalashtirish tartibi) belgilaydi.

2. A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o'rinlarda – Institut) va Pedagogik mahorat markazlari o'qituvchilarining ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ularni ommalashtirish bo'yicha **muvofiglashtiruvchi ishchi organ** hisoblanadi.

3. Mazkur ommalashtirish tartibi umumiy o'rta ta'lim maktabi, Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari, maxsus maktab-internatlari, mehrlil maktab o'qituvchilariga tatbiq qilinadi va **ixtiyoriy hisoblanadi**.

2-bob. Ommalashtirish maqsadi

4. Umumiy o'rta ta'lim tizimiga o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'quv jarayoniga ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda maktabgacha va maktab ta'limi tizimi xodimlari o'rtasida o'zaro tajriba almashish ishlarini yo'lga qo'yishdan iborat.

3-bob. Ommalashtirish bosqichlari

5. Ommalashtirish uchun tavsiya etilgan ilg'or ish tajribalar (keyingi o'rinlarda – metodik ish) metodik qo'llanma yoki metodik tavsiya ko'rinishida bo'lishi lozim.

Metodik qo'llanma yoki metodik tavsiya ko'rinishida bo'lmagan hamda o'tgan yillar davomida ommalashtirilgan metodik ishlar o'rganilmaydi.

6. Metodik ishlar quyidagi bosqichlarda ommalashtiriladi:

maktab miqyosida;

tuman (shahar) miqyosida;

viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi miqyosida;

respublika miqyosida.

7. Maktab miqyosida ommalashtirish:

Umumta'lim muassasasining fan o'qituvchisi (keyingi o'rinlarda – talabgor) tomonidan ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqilgan metodik ish yo'nalishlar bo'yicha maktabning **Metodbirlashmasi tomonidan** muhokama qilinadi hamda ilg'or ish tajribaga ega deb topilgan taqdirda maktab miqyosida ommalashtirish uchun maktabning **Pedagogik kengashiga tavsiya** etiladi.

Metodbirlashma tavsiyasi asosida Pedagogik kengashda talabgorning **metodik ishi** mazkur buyruq bilan tasdiqlangan **metodik ishga qo'yilgan talablar** hamda **baholash mezoniga muvofiq** ishlab chiqilganligi o'rganib chiqiladi hamda maktab miqyosida ommalashtirish yoki ommalashtirmaslik bo'yicha **Pedagogik kengash** qaror qabul qiladi.

Agar talabgorning metodik ishiga ijobiy xulosa berilib, ommalashtirishga loyiq deb hisoblansa, Pedagogik kengash qarori bilan maktab miqyosida ommalashtiriladi va ommalashtirish.uz platformasiga joylashtirilib keyingi bosqichlarga yuboriladi.

Bunda, quyidagi hujjatlar talabgor tomonidan ommalashtirish.uz platformasiga joylashtiriladi:

maktab miqyosida ommalashtirilganligi to'g'risida Pedagogik kengash qarorining **elektron (pdf) nusxasi**;

ommalashtirish uchun tavsiya etiladigan metodik ishi (metodik qo'llanma yoki metodik tavsiya)ning **elektron (pdf) nusxasi**;

talabgor to'g'risida **ma'lumotnoma** (obyektivka) va mutaxassisligi bo'yicha **diplom nusxasi**.

8. Tuman (shahar) va viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirish:

ommalashtirish.uz platformasi orqali yuborilgan metodik ish Muvofiqlashtiruvchi ishchi organing tegishli fanlar bo'yicha **O'quv metodik kengashi tomonidan** o'rganib chiqiladi. Ushbu jarayonlarga Pedagogik mahorat markazlarining pedagoglarni kasbiy rivojlanish bo'yicha direktor o'rinbosarlari mas'ul hisoblanadi.

Quyidagi **yo'nalishlar** bo'yicha O'quv-metodik kengashlar tashkil etiladi:

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi;

filologiya fanlari (ona tili va adabiyot, o'zbek tili, qardosh tillar) yo'nalishi;

rus va xorijiy tillar fanlari yo'nalishi;

ijtimoiy fanlar (tarix, davlat va huquq asoslari, tarbiya) yo'nalishi;

aniq fanlar (matematika, informatika va axborot texnologiyalari) yo'nalishi;

tabiiy va iqtisodiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya, geografiya va iqtisodiyot, tabiiy fanlar) yo'nalishi;

amaliy fanlar (musiqqa madaniyati, tasviriy san'at, texnologiya) yo'nalishi;

jismoniy tarbiya (jismoniy tarbiya, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik) yo'nalishi.

O'quv-metodik kengash tarkibi Muvofiqlashtiruvchi ishchi organ tarkibidagi metodik xizmat bo'limlarining metodistlari, kafedralar professor-o'qituvchilari hamda boshqa ta'lim muassasalarining ijodkor, tajribali o'qituvchi va mutaxassislardan shakllantiriladi. O'quv-metodik kengash a'zolari yo'nalishlar bo'yicha 9-15 nafardan iborat bo'ladi.

Talabgorning metodik ishi maksimal **80 ball** bilan baholanadi. Talabgor tomonidan tayyorlangan metodik ish mazkur buyruq bilan tasdiqlangan **metodik ishga qo'yilgan talablar** hamda **baholash mezoniga** asosan baholanadi.

Bunda, **50-65 ball** bilan baholangan metodik ishlar tuman (shahar) miqyosida, **66-80 ball** bilan baholangan metodik ishlar viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirilgan deb hisoblanadi va **ommalashtirish.uz platformasi orqali** sertifikat olish uchun yuboriladi.

Shundan, **75-80 ball** bilan baholangan metodik ish respublika miqyosida ommalashtirish uchun tavsiya etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi hamda Pedagogik mahorat markazi bilan hamkorlikda o'rganib chiqilib, **O'quv metodik kengash** qarori asosida **respublika miqyosida** ommalashtirish uchun tavsiya etiladi.

Bosqichlar uchun talab etiladigan ballarni to'play olmagan talabgorlarning metodik ishi asoslantirilib, **ommalashtirish.uz platformasiga joylashtiriladi**.

Tuman (shahar), viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirish to'g'risida tegishli O'quv metodik kengashi qarori **har yili 15-mayga qadar ommalashtirish.uz** platformasiga joylashtirilishi lozim.

O'quv metodik kengash qaroridan norozi bo'lgan talabgorlar **uch ish kuni ichida** Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishlari mumkin.

Ommalashtirish.uz platformasi orqali tuman (shahar), viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirish uchun yuborilgan ishlar Muvofiqlashtiruvchi ishchi organ tarkibidagi O'quv metodik kengash qaroriga muvofiq **Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi** tomonidan sertifikat beriladi.

9. Respublika miqyosida ommalashtirish:

Muvofiqlashtiruvchi ishchi organ tarkibidagi O'quv metodik kengash tavsiyasi asosida **respublika miqyosida ommalashtirish uchun yuborilgan metodik ishlar Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashida** o'rganiladi.

Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi Institut hamda Respublika ta'lim markazining 9-11 nafar mutaxassislaridan iborat tarkibda shakllantiriladi. Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashiga Institut rektori hamda Respublika ta'lim markazi direktori hamraislik qiladi.

Respublika miqyosidagi ommalashtirish bosqichida talabgor tomonidan **metodik ishi yuzasidan taqdimot qilinadi va maksimal 20 ball** bilan baholanadi. Taqdimot uchun baholash mezonini Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan ishlab chiqilib, respublika bosqichi boshlanishidan **bir oy oldin** ommalashtirish.uz platformasiga joylashtiriladi.

Taqdimot jarayoni videoyozuvda qayd qilinadi. Videoyozuv Institutda bir yil davomida saqlanadi.

Respublika bosqichida umumiy **86-100 ball** bilan baholangan **metodik ish** Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan respublika miqyosida ommalashtirish to'g'risida qaror qabul qilinadi hamda **har yili 30-mayga qadar ommalashtirish.uz** platformasiga joylashtiriladi.

Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi qaroridan norozi bo'lgan talabgorlar **uch ish kuni ichida** Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishlari mumkin.

4-bob. Ommalashtirish bo'yicha berilgan sertifikatlarning amal qilish muddatlari

Metodik ishning tuman (shahar), viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi) va respublika miqyosida ommalashtirilganligi to'g'risidagi sertifikat berilgan **kundan boshlab uch yilga**;

maktab miqyosida ommalashtirilgan **metodik ish** uchun sertifikat berilmaydi va maktab miqyosida ommalashtirilganligi to'g'risida **Pedagogik kengash qarori** asos hisoblanib, **uch yilga amal qiladi**.

Sertifikatlar faqat Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan beriladi hamda **ommalashtirish.uz platformasi** orqali talabgorning shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

5-bob. Apellyatsiya komissiyasi

10. Tuman (shahar), viloyat bosqichidagi apellyatsiya komissiyasi Muvofiqlashtiruvchi ishchi organining O'quv metodik kengash tarkibiga kirmagan **3-5 nafargacha** tegishliligi bo'yicha yuqori malakali fan mutaxassislaridan iborat tarkibda tuziladi.

Respublika bosqichidagi apellyatsiya komissiyasi Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi tarkibiga kirmagan **3-5 nafargacha** tegishliligi bo'yicha yuqori malakali fan mutaxassislaridan iborat tarkibda tuziladi.

Tuman (shahar), viloyat va respublika bosqichlaridagi apellyatsiya komissiya tarkibiga boshqa muassasa va tashkilotlardan mutaxassislar jalb etish mumkin.

Apellyatsiya jarayonida talabgorning ishtirokisiz, uning metodik ishi va taqdimotining videoyozuvi ko'rib chiqiladi.

11. Apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

O'quv metodik kengash yoki Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi qarorini o'zgarishsiz qoldirish va apellyatsiya shikoyati qondirilishini rad etish;

O'quv metodik kengash yoki Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi kengashi qarorini o'zgartirish va apellyatsiya shikoyatini qondirish.

Bunda, O'quv metodik kengash yoki Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi qarorini o'zgarishsiz qoldirish va apellyatsiya shikoyati qanoatlantirilishini rad etish to'g'risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinadi:

apellyatsiya shikoyati mazkur tartib talablari buzilgan holda taqdim etilgan bo'lsa;

metodik ishga qo'yilgan ballar baholash mezonlariga muvofiq to'g'ri qo'yilgan deb topilsa.

O'quv metodik kengash yoki Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi qarorini o'zgartirish va apellyatsiya shikoyatini qondirish to'g'risidagi qaror metodik ishga qo'yilgan ballar baholash mezonlariga zid ravishda qo'yilgan deb topilsa qabul qilinadi.

12. Takroriy apellyatsiyaga yo'l qo'yilmaydi.

13. Talabgor Apellyatsiya komissiyasi qarori ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sudga yoki yuqori turuvchi tashkilotlarga shikoyat qilishi mumkin.

6-bob. Yakuniy qoidalar

14. Ommalashtirishga tavsiya etilmagan metodik ishga Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashining yakuniy qarorida qayd etilgan izohdan boshqa qo'shimcha xulosalar berilmaydi.

15. Respublika miqyosida ommalashtirilgan barcha metodik ishlardan doimiy ravishda o'qituvchilar foydalanishlari uchun metodik ishlar **ommalashtirish.uz platformasiga** joylashtiriladi.

16. Mazkur Nizom vazirlik tomonidan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin hamda Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

**O'qituvchilarning ilg'or ish tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan
zamonaviy metodikalarini ommalashtirish uchun tayyorlangan metodik ishga
qo'yilgan talablar va baholash
mezoni**

Metodik qo'llanma yoki Metodik tavsiyaga qo'yilgan talablar

I. Metodik qo'llanma yoki Metodik tavsiyaning tuzilishi

- 1.1 Muqova (titul)
- 1.2 Sarlavha
- 1.3 Annotatsiya
- 1.4 Tarkib
- 1.5 Mundarija
- 1.6 Kirish
- 1.7 Asosiy qism
- 1.8 Xulosa
- 1.9 Ilovalar (qo'shimcha materiallar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar, testlar, xaritalar – agar bor bo'lsa.)

II. Mazmunga qo'yilgan talablar

- 2.1 Amaldagi fan dasturlariga mos ravishda yoki dasturlarni takomillashtirish uchun ishlab chiqilganligi;
- 2.2 Metodik qo'llanma yoki Metodik tavsiyada "Qanday o'qitish kerak?" degan savol ochib berilishi, shuningdek, topshiriq namunalari, shakllar, diagrammalar, sxemalar, jadvallar, xaritalar va shunga o'xshash yordamchi elementlardan foydalanish bo'yicha tushuntirishlarning mavjudligi;
- 2.3 Taklif qilinayotgan metodikaning yangiligi;
- 2.4 Fan, kasb, mavzulararo integratsiyaning mavjudligi.
- 2.5 Muayyan pedagogik muammoni hal qilish, o'quv dasturining ayrim bo'lim, bob va mavzularni o'rganishga qaratilganligi;
- 2.6 Tanlangan mavzuning dolzarb bo'lishi, o'qituvchilarga mavzu yuzasidan aniq ma'lumot berilishi, aniq metodik maqsadga yo'naltirilganligi;
- 2.7 O'quvchilarga bilim, ko'nikma, munosabat, qadriyatlar va xulq-atvorni o'zlashtirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar va materiallar bilan bir qatorda

strategiyalar, o'qitish usullari va metodlari, o'qituvchi tomonidan olib boriladigan dastlabki tayyorgarliklarning keltirilishi;

2.8 O'quv sohasi, mavzusi va o'quvchilarni tadqiqotga, kundalik hayotda uchragan turli muammolarga yechim topishga yo'naltiradigan loyihalar va shunga o'xshash amaliy tadqiqotlarning mavjudligi;

2.9 O'quvchilarga qaratilgan amaliy topshiriqlarni yaratish usullari, o'yinlar, tanlovlar, viktorinalar uchun namunali savollar, ochiq tadbirlar, sayohat rejalarini tashkil etish usullarining mavjudligi;

2.10 Zarur tushunchalar lug'ati kiritilganligi;

2.11 Material tizimli va tushunarli bayon qilinganligi.

III. Shakliy-texnik talablar:

3.1 Metodik qo'llanmaning eng kam hajmi 24 bet, Metodik tavsiyaning eng kam hajmi 10 betdan iborat bo'lishi kerak:

annotatsiya 4-8 gapdan oshmasligi;

kalit so'zlar (indeksatsiya uchun) 6-8 so'zdan iborat bo'lishi;

"Times new roman" shrifti, "Microsoft word" redaktoridan foydalanish;

betlarni avtomatik tarzda belgilash;

jadvallar "microcoft word"ning "tablitsa" funksiyasi orqali kiritish;

matn shrifti 12-14, qatorlar oralig'i 1 intervalda bo'lishi;

ilovalar hajmi cheklanmagan, lekin ular matnga mos kelishi (matnda ularga havolalar berilishi);

matnda foydalanilgan adabiyotlarga havolalar kvadrat qavs ichida berilishi, foydalanilgan manbalar ro'yxati kamida 5 nomdan iborat bo'lishi kerak. Agar qo'llanma nazariy havolalarni talab qilmasa, faqat amaliy bo'lsa, unda foydalanilgan manbalar ro'yxatini taqdim qilmasa bo'ladi.

bo'limlar soni va hajmi cheklanmagan.

IV. Til, uslub, ma'no va ifodaga qo'yilgan talablar

O'zbek tilidan to'g'ri foydalanish; tilning ifoda boyligi, ma'no nozikliklariga e'tibor berish;

tildan foydalanishda til va madaniy meros xususiyatlariga ega bo'lgan adabiy mahsulotlar o'rtasidagi bog'liqlikni buzmaydigan noziklikka rioya qilish;

hali tilga kirib ulgurmagan, o'zbekcha ekvivalenti bo'lmagan xorijiy so'zlarga izoh berish;

jargon, haqorat, kamsitish va h.k. bayonotlar kiritilmasligi;
o'quvchilarning sinf darajalariga mos til va ularning so'z boyligini boyitish;
tarkibda semantik yoki strukturaviy ifoda buzilishi bo'lmasligi;
tarkibda hech qanday imloviy, tinish va uslubiy xato bo'lmasligi;
asosiy va amaldagi imlo qoidalariga muvofiq bo'lishi;
ifoda tamoyillari (ravonlik, soddalik, ravshanlik, oddiylik) keraksiz ritorika va iboralardan uzoqda va tushunarli bo'lishi;
ifoda keraksiz so'zlardan, bir xil ma'noli iboralardan va so'z takrorlaridan xoli bo'lishi;
matnni tashkil etuvchi birliklar (gap, paragraf va boshqalar) o'rtasidagi ma'no va ifodaning yaxlitligi ta'minlanishi kerak.

V. Mualliflik huquqi va plagiat

Barcha yozma va vizual tarkibdagi iqtiboslar va havolalar mualliflik huquqi qonunchiligiga muvofiq qilinishi kerak. Plagiatni aniqlash dasturining originallik belgilangan standart me'yorlarga to'g'ri kelmagan ish nollashtiriladi.

VI. Titul sarlavha sahifasi tuzilishi

Yuqori qismida ushbu hujjat topshirilgan muassasaning nomi ko'rsatilgan bo'lishi;

sarlavhaning nomi varaqning o'rtasida katta harflarda va bo'yoqdor shaklda yozilishi;

sarlavhadan biroz pastroqda, muallif haqida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak: ish joyi, lavozimi va familiyasi, ismi, otasining ismi.

Eng pastki qismida (markazda) shahar va yil ko'rsatilishi kerak, ya'ni ushbu qo'llanma qayerda va qachon yaratilganligini anglatadi.

NAMUNA:

QASHQADARYO VILOYATI YAKKABOG‘ TUMANI

68-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI

**FILOLOGIK FANLARNI MASOFAVIY O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKT
IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI**

Lutfillayev Saidaslon Nurmuhammad o‘g‘li

68-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Qarshi _____-yil

Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiyani baholash mezonlari

T/r	Mezon	Jami ball
Shakliy-texnik talablar uchun qo‘yiladigan ballar:		
1.	Muqova, sarlavha, annotatsiya, tarkib, mundarija borligi uchun -1 ball (bunda, sanab o‘tilgan metodik tavsiya shakliy tuzilishining bitta elementi uchramasa – 0 ball); Kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalar (qo‘shimcha materiallar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar, testlar, xaritalar – agar bor bo‘lsa) borligi uchun 3 ball (qisman mos kelsa – 1-2 ball, mos bo‘lmasa – 0 ball)	4
2.	Metodik qo‘llanmaning eng kam hajmi 24 bet, Metodik tavsiyaning eng kam hajmi 10 bet, matn shrifti 12-14, qatorlar oralig‘i 1 (bir) intervalda berilgani uchun 2 ball (talab qilinganlarning bittasi uchramasa – 1 ball, barchasi uchramasa- 0 ball);	2
Qo‘llanmaning mazmuniga, savodxonligiga qo‘yiladigan ballar:		
3.	Amaldagi dastur va o‘quv rejalarga mos ravishda ishlab chiqilganligi: to‘liq mos kelsa – 4 ball (qisman mos kelsa-2-3 ball, mos kelmasa — 0 ball);	4
4.	Taklif qilinayotgan metodik ishda yangilikning borligi uchun 3 ball (yo‘qligi uchun – 0 ball); Yangilikning o‘ziga xos afzalliklari asoslanganligi uchun 3 ball (qisman asoslanganligi uchun 1-2 ball qo‘yiladi; asoslanmasa —0 ball); Ta’lim va tarbiyaning yangi shakllari, usullari yoki vositalarini ishlab chiqqanligi uchun 6 ball (qisman ishlab chiqilgan bo‘lsa – 3 ball, ishlab chiqilmagan bo‘lsa – 0 ball).	12
5.	Taklif etilayotgan metod, texnologiya o‘quvchi yoshi va psixologiyasiga mosligi uchun — 2 ball (qisman mos kelsa – 1 ball, mos bo‘lmasa – 0 ball)	2
6.	Taklif qilinayotgan usul va topshiriqlarning amaliyotda qo‘llashga qulayligi uchun — 2 ball (qisman mos kelsa – 1 ball, mos bo‘lmasa – 0 ball)	2
7.	Topshiriqlar, mashqlar ketma-ketligi mantiqiy tuzilgan, bir-birini to‘ldirib, mustahkamlab borishi nazarda tutilganligi uchun – 2 ball (qisman mos kelsa – 1 ball, mos bo‘lmasa – 0 ball)	2
8.	Integratsiyaning mavjudligi uchun: – fanlararo, mavzulararo – 2 ball ; – kasblararo – 2 ball .	4
9.	– Muayyan pedagogik yoki metodik muammoni aniq tavsiflagani uchun– 2 ball ; – Muayyan pedagogik yoki metodik muammoni hal qilishga qaratilganligi uchun -4 ball (qisman mos kelsa – 2 ball, mos bo‘lmasa – 0 ball).	6

10.	Material tizimli va tushunarli bayon qilinganligi uchun- 2 ball (qisman mos kelsa – 1 ball, mos bo‘lmasa – 0 ball)	2
11.	– Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiyada “Qanday o‘qitish kerak?” degan savol ochib berilganligi uchun– 4 ball (qisman mos kelsa – 2 ball, mos bo‘lmasa – 0 ball); – Taklif qilinayotgan metodikani kimlarga, qachon, qaysi o‘rinlarda foydalanish bo‘yicha tushuntirishlarning mavjudligi uchun – 2 ball (qisman mos kelsa – 1 ball, mos bo‘lmasa – 0 ball).	6
12.	Taklif qilinayotgan metodika orqali erishish mumkin bo‘lgan aniq natijalar ko‘rsatilganligi uchun- 2 ball (qisman mos kelsa – 1 ball, mos bo‘lmasa – 0 ball).	2
13.	Tavsiya etilayotgan metodik ishni amalda qo‘llash uchun o‘qituvchi tomonidan olib boriladigan dastlabki tayyorgarliklarning keltirilganligi uchun – 2 ball .	2
14.	Taklif etilayotgan usul va topshiriqlar asosida bajarilgan ishlarni qanday baholash kerakligi aniq tavsiflangani uchun – 4 ball (qisman mos kelsa – 2 ball, mos bo‘lmasa – 0 ball).	4
15.	Tavsiya qilinayotgan metodik ishda o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid yondashuvning mavjudligi uchun: – 4 K (kollaboratsiya – jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatini shakllantirish; kommunikativlik – muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirish; kreativ fikrlash – o‘z maqsadiga erishish yo‘lida yangiliklarga qo‘l urish, yangi g‘oyalar ishlab chiqish va muammolarni hal qilish; tanqidiy fikrlash – o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish) – 4 ball (bunda har bir 4K elementi mavjudligi uchun – 1 balldan hisoblanadi); – AKT ko‘nikmalari va mediasavodxonlik – 2 ball (qisman mos kelsa – 1 ball, mos bo‘lmasa – 0 ball); – Tadqiqotchilik ko‘nikmalari – 2 ball (qisman bo‘lsa – 1 ball, bo‘lmasa – 0 ball).	8
16.	Hali o‘zbek tiliga kirib ulgurmagan so‘zlarga izoh berilganligi uchun – 2 ball ; o‘zbekcha ekvivalenti bo‘lmagan xorijiy so‘zlarga izoh berilganligi uchun – 2 ball (o‘zbek tiliga kirib ulgurmagan so‘zlar ishlatilmagan bo‘lsa ball to‘liq beriladi).	4
17.	Ifoda tamoyillariga (ravonlik, soddalik, oddiylik) asoslanganligi uchun - 2ball (qisman mos kelsa – 1 ball, mos bo‘lmasa – 0 ball).	2
18.	Matn ilmiy va rasmiy uslubda ekanligi uchun - 2 ball (qisman mos kelsa	2

	– 1 ball, mos bo‘lmasa – 0 ball).	
19.	Matn keraksiz so‘zlardan, bir xil ma’noli iboralardan va so‘z takrorlaridan xoli ekanligi uchun -2 ball (qisman mos kelsa – 1 ball, mos bo‘lmasa – 0 ball).	2
20.	Matn asosiy va amaldagi imlo qoidalariga muvofiqligi uchun	2
21.	Imloviy xatolik uchun: – 1-3 tagacha xato — 2 ball; – 4 va undan ortiq xato – 0 ball. Tinish xato uchun: – 1-3 tagacha xato bo‘lsa — 2 ball; – 4 va undan ortiq xatolar uchun – 0 ball; Uslubiy xato uchun: – 1-2 tagacha xato bo‘lsa — 2 ball; – 3 va undan ortiq xatolar uchun – 0 ball;	6
Jami		80 ball

**O'qituvchilarning ilg'or tajribasini ommalashtirish bo'yicha fanlar
RO'YXATI**

T/r	Fanlar ro'yxati
1	Boshlang'ich ta'lim (1-4 sinf)
2	Ona tili va adabiyoti (o'zbek)
3	Ona tili va adabiyoti (qozoq)
4	Ona tili va adabiyoti (turkman)
5	Ona tili va adabiyoti (tojik)
6	Ona tili va adabiyoti (qirg'iz)
7	Ona tili va adabiyoti (qoraqalpoq)
8	Ona tili va adabiyoti (rus)
9	Rus tili (milliy sinf)
10	Chet tili
11	Tarix
12	Davlat va huquq asoslari
13	Tarbiya
14	Matematika
15	Informatika va axborot texnologiyalari
16	Fizika va astronomiya
17	Kimyo
18	Biologiya
19	Geografiya
20	Tabiiy fan
21	Iqtisodiy bilim asoslari (tadbirkorlik asoslari)
22	Musiqqa madaniyati
23	Tasviriy san'at va chizmachilik
24	Texnologiya
25	Jismoniy tarbiya
26	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik
27	O'zbek tili (davlat tili)
28	Qoraqalpoq tili

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2025-yil " 17 " -martdagi
89-sonli buyrug'iga
4-ILOVA

**O'qituvchilarning ilg'or tajribasining ommalashtirilganligi bo'yicha
sertifikat namunasi**



Ilg'or ish tajriba (metodik ish) ommalashtirilganligi to'g'risida

SERTIFIKAT

(hudud nomi)

(tuman, shahar nomi)

(tashkilot, muassasa nomi)

(lavozimi)

_____ning

(ismi sharifi)

ish tajribasi (metodik ish) _____ miqyosida
(ommalashtirish darajasi: tuman, shahar, viloyat, respublika)

OMMALASHTIRILDI.

Asos: Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashining
20____-yil "____"- _____dagi _____— sonli qarori.

Ushbu sertifikatning amal qilish muddati – 3 yil.

A. Avloniy nomidagi pedagogik
mahorat milliy instituti rektori

Respublika ta'lim
markazi direktori

QR

QR

Sana: _____ Qayd raqami: _____

**O'qituvchilarning ilg'or ish tajribasini ommalashtirish.uz platformasi orqali qabul qilish, o'rganib chiqish
hamda bosqichlar bo'yicha ommalashtirilganligi to'g'risida sertifikatlar berish muddatlari
SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddat
1-bosqich	Ta'lim tashkiloti (maktab)	Metodik ishni Pedagogik kengashga tavsiya etadi. Pedagogik kengash qarori bilan maktab miqyosida ommalashtiradi va keyingi bosqichlarga tavsiya etadi.	Har o'quv yili boshidan 1-martga qadar Har yili 20-martga qadar
2-bosqich	Viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi)	Talabgorlarning metodik ishini o'rganib chiqadi va keyingi bosqichga tavsiya etadi.	Har yili 20-mayga qadar
3-bosqich	Respublika Muvofiqlashtiruvchi kengashi	Tuman (shahar), viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi) miqyosida metodik ishi ommalashtirilgan talabgorlarga sertifikat beradi. Respublika miqyosida ommalashtirishga tavsiya etilgan Metodik ishni o'rganib chiqadi va sertifikat beradi.	Har yili 25-mayga qadar Har yili 5-iyunga qadar